

## Hamkorlar

Kafedra o'z o'quv – uslubiy va ilmiy ishlarini ko'pgina tashkilotlar bilan birgalikda o'zaro hamkorlik asosida olib boradi. Bu tashkilotlar jumlasiga quydagilar kiradi: O'zR Fanlar Akademiyasining Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti; TIMI qoshidagi Irrigatsiya va suv muammolari ilmiy tadqiqot instituti; Qishlok va suv xo'jaligi vazirligining O'zsuvloyixa OAJ tashkiloti; O'zR O'OTV ga qarashli Namangan muxandis-pedagogika instituti va Qozog'iston Respublikasining Janubiy Qozog'iston universiteti va boshqalar. O'zR FA Mexanika va inshootlar seysmik mustahkamligi instituti xodimlari (f.-m.f.d. Sultonov K.S., A.A., t.f.d. Salyamova K.D., t.f.n. Rumi D.F. ) bilan birgalikda ilmiy ishlar olib borish natijasida ular tomonidan ishlab chiqilgan gruntlar holatini o'zida aniq aks ettiruvchi modellar kafedrada olib borilayotgan ilmiy ishlarda keng qo'llanilib kelmokda. Ular bilan birgalikda kafedra xodimlari ko'pgina ixtirolarni amalga oshirib va ilmiy maqolalarni chop etishmokda. Qozog'iston Respublikasining Janubiy Qozog'iston universiteti bilan birga ishlash natijasida o'zaro kadrlar tayyorlash masalasida Qozog'iston Respublikasiga fan nomzodlari va fan doktorlari tayyorlashda professor M.Mirsaidov o'zining ilmiy maslahatlari bilan u yerda tayyorlanayotgan kadrlarga katta yordam ko'rsatdi, ya'ni uning yordami natijasida bu Respublika uchun 2003-2010 yillar davomida 10 ga yaqin fan doktorlari va 20 dan ko'prok fan nomzodlarini tayyorlandi. Janubiy Qozog'iston Universiteti olimlari bilan birgalikda kafedra xodimlari 4 ta o'quv qo'llanmani qozoq tilida ham chop qilishga erishdilar. Namangan muxandis-pedagogika instituti xodimlari (t.f.d. Matkarimov P.J. va t.f.d. Yuldoshev Sh.) bilan birgalikda ko'pgina ilmiy va uslubiy ishlar olib borilmoqda. Buning natijasi sifatida ular bilan birgalikda chop qilingan ko'plab maqolalarni va texnika va qurilish yo'nalishi bo'yicha ta'lim olayotgan bakalavrlar uchun chop kilingan «Materiallar qarshiligi» fani bo'yicha darslikni (M.Mirsaidov, P.J.Matkarimov, A.M.Godovannikov Materiallar qarshiligi: [Oliy o'quv yurtlari uchun darslik]. – T., “Fan va texnologiya”, 2010, — 412 bet. ) ko'rsatish mumkin. Kafedra xodimlari Qishlok va suv xo'jaligi vazirligining O'zsuvloyixa OAJ tashkiloti bilan ham hamkorlikda ishlab, ulardagi ilmiy muammolarni birgalikda yechishga xarakat qilinmokda. Olingan ilmiy natijalarni esa ular olib boradigan monitoring va loyixa ishlarida qo'llash uchun ularga topshirishga erishdilar. Shu bilan birga institutimizda tayyorlanayotgan kadrlar sifat darajasini yanada yuqorroq ko'tarish va kafedrada o'tiladigan fanlar bo'yicha yuqori saviyada dars berish uchun O'zR Fanlar akademiyasining institutlarida va O'zR Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligining institutlaridan olimlar o'rindoshlik asosida dars berishga taklif qilingan. Bular hozirgi kungacha institutimiz talabalariga bilim berib kelishmoqda. Bular f.m.-f.d., prof. K.S.Sultonov, t.f.d., prof. T.M.Mavlonov va t.f.n., dos .D.F.Rumi va C.Ibragimovalar.